

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISLOMQULOVA SHOHSANAM VAHOBJON QIZI

**VRACHNING KASBIY JAVOBGARLIGINI SUG'URTA QILISHNI
FUQAROVIIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Islomqulova Shohsanam Vahobjon qizi

Vrachning kasbiy javobgarligini sugʻurta qilishni fuqaroviy-huquqiy tartibga solish..... 3

Islomqulova Shohsanam Vahobjon qizi

Civil-legal regulation of doctor's professional liability insurance.....26

Исломкулова Шохсанам Вахобжон кизи

Гражданско-правовое регулирование страхования профессиональной ответственности врача..... 48

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISLOMQULOVA SHOHSANAM VAHOBJON QIZI

**VRACHNING KASBIY JAVOBGARLIGINI SUG'URTA QILISHNI
FUQAROVIIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1144 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurullo Fayzulloyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamroqulov Bahodir Mamasharipovich
yuridik fanlar doktori

Xamraqulov Shavkatjon Salimovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-yanvar kuni soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1327-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 18-dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 18-dekabrda 63-son reyestr bayonnomasi).



U. Pyemov

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**KIRISH (falsafa doktori
(PhD) dissertatsiyasi
annotatsiyasi)**

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda aholining ijtimoiy-tibbiy himoyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi dunyo bo'yicha tibbiyotning holati, kamchiliklari va ustunliklarini yanada yaqqol ko'rsatib berdi. Bu esa, o'z o'rnida, tibbiy xizmatning sifati, tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasi, ularning javobgarligi, bemor huquqlarining kafolatlari kabi masalalar xususida chuqurroq mulohaza qilishga undaydi. Yevropa davlatlarida har yili tibbiyot xodimlari ustidan 10 mingga yaqin shikoyatlar sudlarga yuboriladi. Ularning yarmi sud tomonidan qanoatlantiriladi, chunki o'tkazilgan ekspertizalar tibbiyot xodimlarining tibbiy xatosi faktini isbotlaydi. Yevropa kasalxonalarida har yili 15 millionga yaqin odam tibbiy xatolar oqibatlaridan aziyat chekadi. Ya'ni har o'ninchi bemor davolanish uning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishiga duch keladi. AQShda har yili 100 mingga yaqin bemor noto'g'ri tibbiy tashxisdan vafot etadi ¹. Eng gullab-yashnagan mamlakatlardan biri sifatida Germaniyada esa 2023-yilda yo'l qo'yilgan tibbiy xatolarning 43,4 foizi yetarlicha amalga oshirilmagan chora-tadbirlar oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, 39,1 foiz tibbiy xatolar amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan sodir bo'lgan ². Chet ellik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy xatolarning eng katta foizi jarrohlikda to'g'ri keladi. Bu esa bemorlarning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazilganda mulkiy himoyalaniishning turli mexanizmlarini yaratish masalasining ahamiyatini yanada oshiradi.

Jahonda shunday mehanizmlarning eng maqbuli sifatida tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimi e'tirof etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini kafolatlaydigan bunday tartib XX asrning boshlarida amalga kiritilgan. Ushbu tizim eng rivojlangan davlatlar sifatida AQSh, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya kabilar bo'lsa, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlarda ushbu tizimni joriy etish harakati so'nggi o'n yilliklarda kuchaydi.

Mamlakatimizda esa birgina 2023-yilni olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yuborilgan shikoyatlarning 6130 tasi tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatidan norozilik bo'yichadir. Ushbu murojaatlarning 3070 tasi ijobiy qanoatlantirilgan bo'lsa, qolgan deyarli yarmiga yaqini qanoatlantirilmagan.

Uzoq vaqt davomida tibbiyot xodimlarining javobgarligini sug'urta qilish tizimini amalda qo'llayotgan rivojlangan mamlakatlarning tajribasi O'zbekiston Respublikasida ushbu turdagi sug'urta tizimini joriy etish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, har bir davlat tibbiyot xodimlarining javobgarligini kafolatlash modelini sog'liqni saqlash tizimi va umuman iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilaydi.

¹ Fred Charatan. Medical errors kill almost 100000 Americans a year. PMID: PMC1117251 PMID: [10591699](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC1117251/#:~:text=See%20%22Family%20compensated%20for%20death,to%2098000%20Americans%20each%20year).
<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC1117251/#:~:text=See%20%22Family%20compensated%20for%20death,to%2098000%20Americans%20each%20year>.

² <https://www.statista.com/statistics/582805/distribution-medical-treatment-errors-germany-by-type/>

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, deb belgilagan bo‘lib, bu fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashga e‘tiborning kuchayishi, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimining isloh etilishi vrach faoliyatini huquqiy jihatdan aniq tarzda me‘yorlashni taqozo etmoqda.

Vrachlar o‘z kasbiy faoliyati bilan bog‘liq vazifalarni ado etish jarayonidagi xatti-harakatlari, ularning nafaqat axloqiy-ma‘naviy yoki ma‘muriy va intizomiy ayblanishiga, balki aksariyat holatlarda jinoiy va fuqarolik javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy faoliyatning, jumladan, vrach faoliyatining huquqiy asoslariga oid qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa ma‘lumotlarni o‘rganish va ularga amal qilish, avvalo, tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini yaxshilanishida, shu bilan birga, vrachlarning asossiz javobgarlikka tortilishida, ularning javobgarligini sug‘urta qilishda, shubhasiz, muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda, yurtimizda ham tibbiy xizmat ko‘rsatishda sog‘lig‘i va hayotiga yetkazilgan zararni qoplash uchun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishi uchun tibbiyot xodimlarining javobgarligini sug‘urta qilish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va O‘zbekistonda tibbiyot xodimlarining javobgarligini sug‘urta qilishning huquqiy, tashkiliy va moliyaviy asoslarini va tamoyillarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Xususan, sug‘urta tariflarini tartibga solish, bazaviy tarif stavkasi, sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati, sug‘urta qoplamasi va sug‘urta mukofotlarini belgilash, sug‘urta qoplamasini to‘lash va regress talabi, vrachlarning javobgarligini sug‘urta qilish tartibi, sug‘urta hodisasini tekshirish tartibi va jarohatlanganlarga vrach tomonidan yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash tartibini belgilash, amaldagi qonunchilik hujjatlardagi bo‘shliqlarni qonunchilik hujjatlari orqali to‘ldirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda sug‘urta sohasida O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, 2015-yil 26-maydagi “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi, 2009-yil 16-apreldagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi, 2008-yil 10-sentabrdagi “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi, 2008-yil 21-apreldagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda bir nechta qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lsada, vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishning huquqiy asoslari mavjud emas.

Shuningdek, mamlakatimizda tadqiqotchilar tomonidan sug‘urtaning umumiy qoidalari tadqiq qilingan bo‘lsada aynan vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish masalalari tadqiq etilmagan, nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqot ishida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan:

tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish to'g'risida muayyan normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishini tezlashtirish;

tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini ixtiyoriy va majburiy sug'urta qilish shartnomaning xususiyatlari va uning tuzilishini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan "Tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari"ni ishlab chiqish;

ushbu sug'urtaning majburiyligi masalalarini o'rganish, xorijiy davlatlar amaliyoti orqali ijtiyoriy sug'urtaning ham xususiyatlarini tahlil qilish;

yetkazilgan zarar miqdorini o'rganish va sug'urta hodisasini tekshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish;

dunyoda mashhur bo'lgan vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishni moliyalashtirish bo'yicha "**ijtimoiy model**" va "**bozor modeli**", vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha "**aybdor tizimi**" va "**aybsiz tizimi**", tibbiy xatoliklar bo'yicha "**beparvolik nazariyasi**" va "**loss of chance (imkoniyatlarni yo'qotish) nazariyasi**", zararni qoplash yuzasidan "**corrective justice**" nazariyasi, tibbiy javobgarlik bo'yicha "**caveat emptor**" va "**caveat venditor**" kabi maxsus nazariyalar va doktrinalar mamlakatimizda qonunchilikda, huquqni qo'llash va sud amaliyotidagi muammolarda chuqur tahlil qilish.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuni o'rganishda vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari, huquqni qo'llash amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan adabiyotlardan foydalanildi.

Xususan, mamlakatimiz olimlari tomonidan sug'urtaning umumiy masalalari, shuningdek, muayyan turlari tadqiq etilgan. Jumladan, H.R.Rahmonqulov, O.Oqyulov, M.A.Aminjonova, N.Egamberdiyeva, F.Y.Shodmonov, Sh.A.Ismoilov, Sh.N.Ro'zinazarov, D.R.Maxmudov, M.S.Boltayevlar tomonidan sug'urtaning bir qator masalalari o'rganilgan. Bevosita tibbiyot sohasidagi sug'urtalar hamda fuqarolik va kasbiy javobgarlik bilan bog'liq sug'urtalarni tadqiq etishda ham harakatlar mavjud. Masalan, M.A.Aminjonova¹ tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta xizmati ko'rsatishning fuqarolik huquqiy muammolari, A.U.Ergashev² tomonidan transport vositalari egalari fuqarolik

¹ Aminjonova M.A. Bozor iqtisodiyot sharoitida sug'urta xizmati ko'rsatishning fuqarolik huquqiy muammolari. yu.f.n.dissertatsiyasi. – Toshkent: 2004.

² A.U.Ergashev. Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasini qo'llash muammolari. yu.f.n.dissertatsiyasi. – T., 2012. -172 b.

javobgarligini majburiy sug'urtalash, Sh.S.Xamraqulov¹ tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini tartibga solish masalalari, I.T.Palvanov² tomonidan kasbiy javobgarlikni majburiy sug'urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi o'rganilgan bo'lsa, M.S.Boltayev³ tomonidan tibbiy sug'urta shartnomasini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari tadqiq etilgan.

Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bilan bog'liq ayrim masalalar ingliz olimlari M.D.Frakes⁴, M.A.Rodwin, J.Silverman, D.Merfeld⁵, S.Robert⁶ va boshqalar tomonidan, rus olimlari Ermakov V.⁷, A.V.Voropayev, I.A.Voropayeva, Y.S.Isayev⁸, O.Yu.Krasilnikov⁹, E.I.Chetirus¹⁰ va S.Dedikov¹¹lar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlarining huquqshunos olimlari I.E.Shinkarenko¹², E.Suxanov¹³, B.T.Sultanaliev¹⁴ lar tomonidan ham ushbu sug'urtaning umumiy masalari bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Biroq mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida O'zbekistonda kompleks tadqiq qilingan ilmiy tadqiqot ishi mavjud emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan mosligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda "Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishni fuqaroviy-huquqiy tartibga solish" ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

¹ Sh.S.Xamraqulov. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini tartibga solish masalalari. yu.f.n.dissertatsiyasi. – Toshkent: 2024.

² I.T.Palvanov. Kasbiy javobgarlikni majburiy sug'urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi. yu.f.n.dissertatsiyasi. – Toshkent: 2004.

³ Boltayev M.N. O'zbekiston Respublikasida tibbiy sug'urta faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Yu.f.d.dissertatsiyasi. Avtoref. – Toshkent: 2022.

⁴ Frakes, M. D. The Surprising Relevance of Medical Malpractice Law / M. D. Frakes // University of Chicago Law Review. Forthcoming – 2014. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2410426## (дата обращения 04.02.2019).

⁵ Rodwin, M. A. Why the medical malpractice crisis persists even when malpractice insurance premiums fall [Текст] / M. A. Rodwin, J. Silverman, D. Merfeld // Health Matrix. – 2015. – № 15. – P. 163-226.

⁶ Robert S. Bruer, Loss of a Chance As a Cause of Action in Medical Malpractice Cases, 59 MO. L. REV. (1994) Available at: <https://scholarship.law.missouri.edu/mlr/vol59/iss4/5>

⁷ Ермаков В. Страхование гражданской ответственности медицинских работников // Финансовая газета. 2003. Региональный выпуск. № 6–7.

⁸ А.В.Воропаев, И.А.Воропаева, Ю.С.Исаев. Страхование профессиональной ответственности медицинских работников. Основы медицинского права и этики. Сибирский медицинский журнал, 2006, № 2. С. 104-106.

⁹ О.Ю.Красильников, Риски страхования профессиональной ответственности медицинских работников. <http://risk2021.sgu.ru/files/Agenda2021.pdf>

¹⁰ Четырус Евгений Игоревич. Страхование гражданско-правовой ответственности за причинение вреда: дис. ... канд. юрид. наук: 12:00:03, Москва-2015.

¹¹ Дедиков, С. Страхование профессиональной ответственности / С. Дедиков // Хозяйство и право. 2011. № 10(417). С. 68-89.

¹² Шинкаренко И.Э. Страхование ответственности. М., 1999.

¹³ Суханов Е.А. Лекция о праве собственности. – М., 1991.

¹⁴ Султаналиев Б.Т. Страхование профессиональной ответственности медицинских работников. Available at: https://arch.kyrlibnet.kg/uploads/UASULTANALIEV1_2010-3.pdf

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiyaning maqsadi O‘zbekistonda vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, mohiyatini o‘rganish;

vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishga oid qonunchilikning rivojlanish genezisini tahlil qilish;

vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish shartnomasi, sug‘urta mukofoti va sug‘urta tovonini, sug‘urta hodisasini aniqlash, subrogatsiya masalalarini o‘rgangan holda O‘zbekiston qonunchiligiga joriy etish;

vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishdagi muammolar va xorij amaliyotini o‘rganib chiqib, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish bilan bog‘liq moddiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini vrachning huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotidagi tajribalar, shuningdek o‘rganilayotgan mavzuga oid xalqaro standartlar, ilmiy-nazariy qarashlar, konseptual yondashuvlar va g‘oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga tibbiy faoliyat, tibbiy xato, tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi kabi tushunchalarni kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga bemorning hayoti va sog‘lig‘iga e‘tiborsizlik yoki ehtiyotsizlik munosabati bilan tibbiy xodim tomonidan zarar yetkazganlik uchun tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash kerakligi haqidagi qoidani kiritish;

nodavlat tibbiyot tashkilotlarida yuz berishi mumkin bo‘lgan tibbiy xatolarning oldini olish maqsadida hamda ularning litsenziya talablari hamda shartlari bajarilishi monitoringini yuritish uchun barcha nodavlat tibbiyot tashkilotlarini maxsus axborot tizimiga ulash tartibini yo‘lga qo‘yish;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomda tibbiy xatolarning oldini olish maqsadida tibbiy faoliyatni amalga oshirishda rioya qilish lozim bo‘lgan tartib-qoidalarni mustahkamlash;

nogironlikni aniqlashda tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning rolini kuchaytirish, shuningdek, vrachning tibbiy xatosi oqibatida bemorlarda kelib chiqadigan nogironlikni tekshirishda tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning ahamiyatini oshirish.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadigan “Tibbiyot xodilarining kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash qoidalari”ni ishlab chiqish taklifi ilgari surilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni 24-moddasida bemorning tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan va tibbiy yordam olayotgan paytda tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan shifokordan uning kasbiy javobgarligi sug‘urtalanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni talab qilish huquqini belgilash nazarda tutilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” Qonuni 46-moddasini uchinchi xatboshisida tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tibbiy yordam ko‘rsatish nuqsoni oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetgan hollarda yetkazilgan zarar o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda kasbiy javobgarligi sug‘urtasi hisobidan qoplanishi lozimligi asoslangan;

tibbiy faoliyat, tibbiy xato, tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi, kasbiy javobgarlikni sug‘urta qilish kabi tushunchalarga mualliflik ta’riflari berilgan;

tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish majburiy bo‘lishi lozimligi va buning ahamiyati asoslab berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga vrach faoliyatini amalga oshirish shartlari va tartibi, ularning javobgarligini sug‘urta qilish, shuningdek ularning huquq va majburiyatlari, sug‘urta tariflarini tartibga solish, bazaviy tarif stavkasi, sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati, sug‘urta qoplamasi va sug‘urta mukofotlari, sug‘urta qoplamasini to‘lash va regress talabi, sug‘urta hodisasini tekshirish tartibi va bemor, jabrlanuvchi va naf oluvchining huquqlarini o‘z ichiga olgan tegishli moddalarni kiritish bo‘yicha takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, fuqarolar va tibbiyot xodimlari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilganligi, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining xorijiy va milliy nashrlarda e‘lon qilinganligi, bildirilgan taklif va xulosalarning tegishli davlat organlari tomonidan inobatga olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, qonun hujjatlarining tadqiqot mavzusiga oid tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda manba sifatida qo‘llashga hamda fuqarolik huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda

hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

tibbiy faoliyat, tibbiy xato, tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi kabi tushunchalarga bergan ta'riflari bo'yicha takliflar Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 9-oktabrdagi 05-19/23177-son xati va dalolatnomasi). Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasini tibbiy faoliyatga oid asosiy tushunchalar bilan to'ldirishga xizmat qilgan;

bemorning hayoti va sog'lig'iga e'tiborsizlik yoki ehtiyotsizlik munosabati bilan tibbiy xodim tomonidan zarar yetkazganlik uchun tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalash kerakligi haqidagi takliflar Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 187-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 9-oktabrdagi 05-19/23177-son xati va dalolatnomasi). Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasida tibbiyot xodimlarining huquqiy maqomi va huquqlarini belgilash uchun xizmat qilgan;

nodavlat tibbiyot tashkilotlarining litsenziya talablari hamda shartlari bajarilishi monitoringini yuritish uchun barcha nodavlat tibbiyot tashkilotlarini Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus axborot tizimiga ulash va ushbu maxsus axborot tizimi orqali nodavlat tibbiyot tashkilotining xodimlari, tibbiy texnikasi, xizmat turlari, tibbiy statistika va boshqa hisobotlari monitoringini yuritish, tibbiy faoliyatni nazorat qilishda "xavfni tahlil qilish" tizimini yo'lga qo'yish haqidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son "Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 9-oktabrdagi 05-19/23177-son xati va dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi nodavlat tibbiyot tashkilotlarining litsenziya talablariga rioya qilishi yuzasidan monitoringni kuchaytirish va ular tomonidan yo'l qo'yiladigan tibbiy xatolarning oldini olishda huquqiy mexanizmlarni yaratishga xizmat qilgan;

tibbiy faoliyatni amalga oshirishda sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga rioya qilish; litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlangan va (yoki) xalqaro tibbiy amaliyotda sinovdan o'tgan profilaktika usullari, diagnostika va davolash standartlariga rioya qilish haqidagi takliflaridan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 27-ilovasi (tibbiy faoliyatni litsenziyalash pasporti)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 26-iyuldagi 15-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi tibbiy xizmatni ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan litsenziyani olish uchun taqdim qilinadigan

hujjatlarga qo'yiladigan talablarning hamda tibbiyot xodimlari tomonidan tibbiy faoliyatni amalga oshirishning talab va shartlarining huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qiladi;

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni 37-moddasini "tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funksional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funksiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek, shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va zarur mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida tavsiyalar berish tibbiy-ijtimoiy ekspertizadir" shaklida tahrir qilish haqidagi taklifdan "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi O'RQ-770-son Qonunini ishlab chiqishda foydanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 21-avgustdagi 3/08-149-son xati va dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tkazishning huquqiy asoslarini belgilashda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi va undagi xulosa, taklif va tavsiyalar bo'yicha jami 10 ta, shundan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta (2 ta xorijiy) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 143 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning *“Vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi”* deb nomlangan birinchi bobida vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning omillari va zaruriyati, vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar va uning mohiyati, vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishga oid qonunchilikning rivojlanish genezisi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning omillari va zaruriyatini tahliliy o‘rgangan. Jumladan, vrachning kasbiy javobgarligini sug‘urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish omillari sifatida quyidagilarni birma-bir sanab o‘tgan:

bir tarafda bemorlarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish uchun qonuniy himoya vositalarini izlash va boshqa tarafda tibbiyot xodimlarining javobgarligini huquqiy himoya qilish bilan bog‘liq harakatlar turganda, vrachlar tibbiy va huquqiy munosabatlar subyektlarining zaifroq toifasiga aylanib qoladilar;

sog‘liqni saqlashning butun tizimi faqat tibbiyot xodimlarining faoliyati orqali ta‘minlanadi hamda aksariyat hollarda ularning majburiyatlari va javobgarligi masalasiga e‘tibor qaratiladi, ularning huquqlarini amalga oshirish va qonuniy manfaatlarini himoya qilish e‘tibordan chetda qoladi;

vrachning va bemorlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tibbiyot masalalarida sud ishlari sonining ko‘payishiga olib keladi.

Dissertantning fikricha, oxirgi yillarda sodir bo‘lgan koronavirus pandemiyasi (COVID-19 virusi) tufayli vrachning kasbiy javobgarligi sug‘urtasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bordi. Chunki bir tomondan, yuqumli kasalliklar bilan ishlaydigan tibbiyot xodimlarining o‘zlari orasida infeksiya bilan kasallanish xavfi ortishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, boshqa tomondan tibbiy xavf natijasida bemorlar sog‘lig‘ining yomonlashishiga va hatto bemorning o‘limiga olib keladigan tibbiy xatolar vujudga keldi.

Shuningdek, tadqiqotchi kasbiy javobgarlik, kasbiy javobgarlikni sug‘urta qilish, tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish shartnomasi kabi tushunchalarni tahlil qilishda bir qator olimlarning (N.B.Grishenko, I.N.Romanova, O.V.Kolesnichenko, V.O.Filippov, A.Jalinskiy va A.Rerix, T. Isakov, A. Karimov) fikr va mulohazalaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Dissertant tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini kafolatlashning xalqaro tajribasida moliyalashtirish manbai bo‘yicha ikki xil model: **bozor modeli** va **ijtimoiy model** mavjudligini ta‘kidlab, Shvetsiya va Kanada misolida ijtimoiy modelni, Germaniya misolida bozor modelini o‘rgangan. Ijtimoiy model ko‘proq davlat tibbiyot muassasalarining miqdori yuqori bo‘lgan davlatlarda mavjud. Ijtimoiy model davlat tomonidan bitta markazlashgan organ, masalan, Jamg‘arma yordamida amalga oshiriladigan sug‘urta tizimini moliyalashtirish va boshqarish nuqtai nazaridan katta mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish hajmi xususiy tashkilotlarda davlat tashkilotlaridan ko‘proq bo‘lgan mamlakatlarda tibbiyot xodimlari javobgarligini sug‘urta qilishda xususiy bozor katta ahamiyatga ega. Dissertatsiyada ikkala modelning ham elementlari tahlil qilingan holda

tadqiqotchi mamlakatimizda bozor modelidan foydalanish maqsadga muvofiqligi xususida to'xtamga kelgan.

Ilmiy ishni yozishda dissertant vrachning kasbiy javobgarligini sug'urtalash bo'yicha 2 ta muhim nazariya: **beparvolik nazariyasi** va **imkoniyatni yo'qotish nazariyasini** atroflicha o'rgangan hamda ushbu nazariyalarning ish uchun ahamiyatini yoritib bergan.

Tadqiqotchi tomonidan vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishga oid qonunchilikning rivojlanish genezisi va uni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari turli davrlar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyin tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qonunchilikning rivojlanish jarayoni shartli ravishda quyidagi 3 ta davrga bo'lingan:

birinchi davr – tibbiyot xodimining kasbiy faoliyati, umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qonunchilikning rivojlanish jarayoni (1991-2000 yillar);

ikkinchi davr – bevosita ayrim toifa shaxslarning fuqaroviy javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qonunchilikning rivojlanish jarayoni (2001-2017 yillar);

uchinchi davr – ayrim toifa kasb egalarining va tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qonunchilikning rivojlanish jarayoni (2018-yildan hozirga qadar).

Tadqiqotchi AQSH, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya va boshqa davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasiga vrachning kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq qoidani kiritish taklifini va shu orqali ushbu munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish yuzasidan takliflarni ilgari surgan.

Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi quyidagi huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy **oqibatlar**ga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tilgan:

birinchidan, tibbiyot xodimlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda huquqiy asos yaratiladi;

ikkinchidan, mulkiy nizolarni sudgacha hal qilish imkoniyati yaratiladi;

uchinchidan, fuqarolarning to'laonli tibbiy yordamga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, bemorlarning mulkiy huquqlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi;

to'rtinchidan, tibbiyot xodimlarining javobgarligini sug'urta qilish instituti amalga oshirilishini ta'minlaydigan vositalar va mexanizmlarni shakllantirish uchun huquqiy asoslar yaratiladi;

beshinchidan, kelgusida tibbiyot xodimlari va bemorlar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning soni kamayishiga imkon yaratiladi.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha butun dunyoda "**aybdor**" tizimi va "**aybsiz**" tizimi amal qilishi aytib o'tilgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo bo'lgan aksariyat mamlakatlarda tibbiy yordam ko'rsatish nuqsoni uchun qonunchilik va sud amaliyotida ishlab chiqilgan hamda keng qo'llaniladigan aybni talqin qilish asosida baholanadi. Ayb tizimi tibbiyot xodimiga nisbatan jazo

choralari qo'llanilishi tufayli tegishli sud qarori qabul qilinishini talab qiladi. Ushbu model AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Aybsiz tizimi esa aybsiz qoplash tizimiga asoslangan. Bunda sud tomonidan tibbiy mutaxassislarining javobgarligini belgilash zarar ko'rgan bemorlarga pul mablag'larini berish uchun zaruriy shart emas. Sug'urta uchun pul mablag'lari berishni amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib odatda shikastlanishning o'zi yoki shikastlanishning oldini olish mumkinligi hisoblanadi. Jabrlangan bemorlarga zararni qoplash Daniya, Finlandiya kabi davlatlarda tijorat va notijorat sug'urta tashkilotlari tomonidan xususiy manbalar hisobidan yoki Shvetsiya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda davlat tomonidan amalga oshiriladi. Yuqoridagilarni talqin qilgan holda dissertant O'zbekiston uchun "aybdorlik" tizimi mos kelishi haqidagi xulosalarga kelgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish shartlari va tartibi*" deb nomlanib, unda vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish obyektini va subyektlari, vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi, sug'urta mukofoti va sug'urta to'voni, sug'urta hodisasini aniqlash tartibi hamda subrogatsiyani qo'llash kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish obyektini batafsil o'rgangan va tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish obyektini tibbiy yordam ko'rsatishdagi xatoliklar tufayli jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazish natijasida vujudga keladigan majburiyatlar bo'yicha tibbiyot xodimining javobgarligi yuzasidan **mulkiy manfaatlaridir** deya ta'rif bergan.

Bunda dissertant bir qator olimlar (A.E.Kozinov, E.P.Dolgoplova, T.S.Martyanova, V.Yu.Abramov, K.Hugel)ning fikr-mulohazalari bilan munozaraga kirishgan.

Tadqiqotchining talqinicha, tibbiyot xodimlarining javobgarligini sug'urta qilish subyektlari bo'lib sug'urtalovchi, tibbiyot xodimi (sug'urta qildiruvchi), jabrlanuvchi va naf oluvchilar hisoblanadilar. Ushbu masala yuzasidan dissertant Rossiya, Germaniya, AQSh davlatlarining amaliyotini o'rgangan. Shuningdek, Rossiya amaliyotiga qo'shilmagan holda, ushbu sug'urtada sug'urta qildiruvchi faqat jismoniy shaxs, ya'ni tibbiyot xodimi bo'lishi lozim, degan fikrni ilgari surgan. Vaholanki, Rossiyada tibbiyot xodimlari emas, tibbiyot muassasalarining kasbiy javobgarligini sug'urtalash amaliyoti mavjud, ammo kasb tushunchasi faqatgina jismoniy shaxsga xos bo'lib, yuridik shaxs kasbga ega bo'lishi mumkin emas.

Bundan tashqari dissertant "xalq tabobati vakillarining ham javobgarligini sug'urtalash kerakmi yoki yo'qmi?" degan fikrlar yuzasidan munozaraga kirishgan.

Tadqiqotchi vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi, sug'urta mukofoti va sug'urta to'voni, sug'urta hodisasi kabi tushunchalarni ochib berish uchun bir qancha olimlar (sug'urta mukofoti yuzasidan I.I.Stepanov; sug'urta shartnomasi yuzasidan M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, S.V.Dedikov,

P.V.Sokol, A.E.Kozinov)ning fikrlari bilan munozaraga kirishib, bu tushunchalarga o'zining mualliflik ta'riflarini bergan.

Qozog'iston amaliyotidan kelib chiqqan holda, tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta to'voni miqdorini quyidagilarga bog'liq qilib belgilash kerakligini taklif qilgan:

tibbiy xato bemorning nogironligiga sabab bo'lmasa;

tibbiy xato bemorning 3-guruh nogironligiga sabab bo'lsa;

tibbiy xato bemorning 2-guruh nogironligiga sabab bo'lsa;

tibbiy xato bemorning 1-guruh nogironligiga sabab bo'lsa;

tibbiy xato bemorning o'limiga sabab bo'lsa.

Tadqiqotchi o'rganishlari natijasida sug'urta hodisasiga sabab bo'lgan tibbiy xatolikka nafaqat bemorni davolash jarayonidagi, balki bemorga tashxis qo'yish, diagnostika qilish, dori retseptlarini yozib berish, sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish jarayonlaridagi xatoliklar ham kiradi, degan xulosaga kelgan va shu asosida vrach tomonidan yo'l qo'yiladigan tibbiy xatolarni davolashdan oldingi, davolash jarayonidagi va davolashdan keyingi tibbiy xatolar kabi turlarga bo'lishni taklif qilgan.

Tadqiqotchi tadqiq qilinayotgan sug'urta turidagi sug'urta hodisasini tahlil qilgan holda sug'urta hodisasi hisoblanadigan, sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan hamda sug'urta hodisasi hisoblansa-da, sug'urtalovchi tomonidan regress talab qilish huquqi mavjud holatlar yuzasidan takliflarni ilgari surgan.

Vrach tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarning turlari va zararni baholash tartibi yuzasidan xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti o'rganilgan hamda zararni qoplash yuzasidan **“corrective justice”** nazariyasi tahlil qilinib, ushbu nazariyani mamlakatimiz qonunchiligida qo'llash afzalliklari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishdagi muammolar va xorij amaliyoti”** deb nomlanib, bunda tadqiqotchi Germaniya, AQSh, Shvetsiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston kabi davlatlar qonunchiligi va huquq amaliyotini o'rgangan hamda yoritib bergan.

Dissertatsiyada vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishda majburiy sug'urtalashni joriy etish muammoning asosiy yechimi ekanligini ta'kidlangan. Bunda fikrlar rus mualliflari L.B.Sitdikova va S.M.Kovalevskiyning qarashlari bilan asoslantirilgan. Ushbu majburiy sug'urta bo'yicha tegishli tartib qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasiga kiritish taklif etilgan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida” Qonuniga tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan bir qator o'zgartirishlar kiritish lozimligi asoslantirilgan. Jumladan, Qonunning 24-moddasiga qo'shimcha kiritib, bemor tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan va tibbiy yordam olayotgan paytda tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan shifokordan

uning kasbiy javobgarligi sug'urtalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qilish huquqiga egaligini nazarda tutish lozimligi ta'kidlangan.

Shuningdek, ushbu Qonunning 46-moddasi uchinchi xatboshisini ham o'zgartirib, uni "tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tibbiy yordam ko'rsatish nuqsoni oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetgan hollarda yetkazilgan zarar o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda kasbiy javobgarlik sug'urtasi hisobidan qoplanadi" tarzida tahrir qilish maqsadga muvofiqligi taklif qilingan.

Tadqiqotchi vrachning kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilishning samarali ishlashi uchun eng yaxshi mexanizmlar sifatida quyidagi takliflarni keltirgan:

Dastavval O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga kasbiy javobgarligi sug'urtalanmagan tibbiyot xodimi bilan mehnat shartnomasini tuzish taqiqlanishi bilan bog'liq qoidani kiritish. Ya'ni ishga kirish haqida ariza yozgan tibbiyot xodimidan uning kasbiy javobgarligi sug'urtalanganligi bo'yicha sug'urta polisini talab qilish lozim bo'ladi. Ushbu mexanizm orqali barcha mehnat faoliyatini olib borayotgan tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalashga erishilgan bo'ladi.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, davlat tibbiyot muassasalarida mehnat munosabatlarining qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish xususiy tibbiyot muassasalariga qaraganda osonroq. Lekin bugungi kunda ko'plab xususiy tibbiyot muassasalari vrachlar bilan mehnat shartnomasi tuzmagan holda hamkorlikda ishlaydigan, garchi mehnat shartnomasi bo'lmasada, vrachlarning ushbu muassasada faoliyat olib borishiga imkon yaratib beradigan holatlar amaliyotda uchrab turibdi. Bunday holatda sug'urtani amalga oshirish uchun eng maqbul yechim bu kasbiy javobgarlik sug'urtasini bevosita xususiy tibbiyot muassasasining litsenziyasiga bog'lab qo'yishdir.

Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-fevraldagi 80-son "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga tibbiyot muassasasining kasbiy javobgarligi sug'urtalanmagan tibbiyot xodimi bilan mehnat shartnomasini tuzishi yoki muassasada uning faoliyatiga ruxsat berishi tibbiyot muassasasining tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bekor bo'lishiga olib keladigan qo'shimcha kiritish lozimligi taklif qilingan.

Shuningdek, dissertant tomonidan "**Caveat Emptor**" va "**Caveat Venditor**" nazariyalarini sud amaliyotiga joriy etish kelgusida bemorlarga o'zlari murojaat qilayotgan tibbiyot muassasasi haqida to'liq xabardor bo'lish lozimligi majburiyatini yuklaydi va keyinchalik vrachlarga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan asossiz da'volarning oldini olishi asoslangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "caveat emptor" belgisi ostida tibbiyotga oid muhim ma'lumotlar bilan aholini xabardor qilib borish tartibini joriy qilish taklif qilingan.

XULOSA

Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urta qilishni fuqaroviy-huquqiy tartibga solishga oid tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda qonunchilikka oid taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini kafolatlashning xalqaro tajribasida moliyalashtirish manbai bo'yicha ikki xil model – bozor modeli va ijtimoiy model mavjud bo'lib, O'zbekistonda bozor modelining elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

2. Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urtalash bo'yicha 2 ta muhim nazariya, ya'ni beparvolik nazariyasi va imkoniyatni yo'qotish nazariyasi mavjud bo'lib, imkoniyatni yo'qotish nazariyasi AQSh davlatida juda mashhur, ammo O'zbekiston Respublikasi roman-german huquq tizimiga mansubligi sababli ushbu nazariyani mamlakatimiz qonunchiligida qo'llashning imkoni mavjud emas. Shuning uchun barcha sug'urta turlariga xos bo'lgan umumiy nazariya sifatida beparvolik nazariyasini tatbiq etish maqsadga muvofiqligi taklif etilgan;

3. Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urtalashning dunyoda 2 ta "aybdorlik" va "aybsizlik" tizimi mavjud hamda bu bo'yicha O'zbekiston qonunchiligini "aybdorlik" tizimiga asoslangan holda yaratish maqsadga muvofiqligi asoslangan. Chunki, bizningcha, yoritilayotgan sug'urta turining mohiyati ham shundan iboratki, tibbiyot xodimining javobgarligi yuzaga kelishi kerak. Bunday javobgarlikka sabab esa, albatta, vrach aybining, xatosining mavjudligidir. Sug'urtalashda "aybdorlik" tizimini tanlash kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning, huquqni qo'llashdagi tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi;

4. "Tuzatuvchi adolat" (Corrective Justice) nazariyasini tibbiyot xodimining kasbiy xatosi oqibatida bemorning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish bilan bog'liq sud ishlarida faol qo'llash taklif qilingan. Ushbu nazariyani qo'llash aybdorga nisbatan adolatli hukm chiqarilishiga va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining to'la qoplanishiga sabab bo'ladi;

5. "Caveat Emptor" va "Caveat Venditor" nazariyalarini sud amaliyotiga joriy etish kelgusida bemorlarga o'zlari murojaat qilayotgan tibbiyot muassasi haqida to'liq xabardor bo'lish lozimligi majburiyatini yuklaydi va keyinchalik vrachlarga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan asossiz da'volarning oldini olishi asoslangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Caveat Emptor" belgisi ostida tibbiyotga oid muhim ma'lumotlar bilan aholini xabardor qilib borish tartibini joriy qilish taklif qilingan;

6. Vrachning kasbiy javobgarligini sug'urtalashga oid bir qator atamalar ilmiy va nazariy tahlil qilingan holda quyidagi atamalarga mualliflik ta'riflari berildi:

"tibbiy faoliyat" – kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish, davolash va bemorni rehabilitatsiya qilish, shuningdek, aholining sanitariya-epidemiologik

osoyishtaligini ta'minlash, tibbiy ekspertiza o'tkazishga qaratilgan, maxsus tibbiy ma'lumot va ko'nikmalarni talab qiladigan kasbiy faoliyat;

"tibbiy xato" – bemorga zarar yetkazgan yoki yetkazmagan o'rnatilgan normalar, qoidalar, tibbiy amaliyotda qabul qilingan odat va ish tartibi an'analariga rioya qilmaslik, tibbiy texnologiyalar, standartlar yoki ularni amalga oshirish natijalariga muvofiq bo'lmasligida ifodalangan davolash va diagnostika jarayonining, tashkiliy va texnik chora-tadbirlar, sanitariya va epidemiyaga qarshi tartib, tibbiy yordamning bir yoki bir necha bosqichlarida (statsionargacha, statsionarda va statsionardan keyin) dori ta'minotining buzilishi;

"tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi" – sug'urtalovchi uning bo'yicha sug'urta hodisasi vujudga kelganda kelishilgan to'lov (sug'urta mukofoti) yuzasidan tibbiyot xodimiga va (yoki) jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini sug'urta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladigan sug'urta shartnomasi;

"kasbiy javobgarlik" – bu ma'lum bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan davlatga, yuridik shaxs yoki boshqa jismoniy shaxslarga o'zining kasbiy faoliyati natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarari uchun qonunchilikda belgilangan ta'sir choralari;

"sug'urta hodisasi" – tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi amal qilishi davrida jabrlanuvchilarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun tibbiyot xodimining kasbiy javobgarligi yuzaga kelganligining belgilangan tartibda tasdiqlangan fakti;

"sug'urta qildiruvchi" – tibbiy xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan va sug'urtalovchi bilan kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzgan tibbiyot xodimi;

"sug'urtalovchi" – tegishli turdagi sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan, tibbiyot xodimining tibbiy xizmat ko'rsatayotganida bemorning hayoti va sog'lig'i uchun yetkazilgan zarardan majburiy sug'urtalashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

"jabrlanuvchi" – tibbiy yordam olayotganida hayoti va (yoki) sog'lig'iga zarar yetkazilgan bemor;

